

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Toshkent viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 2867,5 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 6,3 ming kishiga yoki 0,2 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1414,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,3 %), qishloq aholisi soni 1453,2 ming kishini (50,7 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2018 yil yanvar-mart

- Aholi soni **6,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **11,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- 4,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,9 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


## Toshkent viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-mart)

**Tirik tug'ilganlar  
11,7 ming bola**




**Vafot etganlar  
4,3 ming kishi**

**Ko'chib kelganlar  
4,5 ming kishi**




**Ko'chib ketganlar  
5,7 ming kishi**

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'ssatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumanida 203,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,1 %ni) va Qibray tumanida 195,7 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Ohangaron shahrida 36,6 ming kishini (1,3 %) va Nurafshon shahrida 47,8 ming kishi (1,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Yuqorichirchiq, Parkent va O'rtaçhirchiq tumanlarida 1,5 %ga, Oqqo'rg'on, Chinoz va Yangiyo'l tumanlarida 1,4 %ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Bo'stonliq,



**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 11,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 16,7 promille bo'lган).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Ohangaron (11,9 promilledan 19,1 promillega) va Yangiyo'l (14,3 promilledan 19,2 promillega) shaharlarda sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Ohangaron (18,8 promilledan 14,5 promillega) tumanida va Angren (17,6 promilledan 15,2 promillega) shahrida kuzatildi.

## Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### **Toshkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart**

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>11691</b>	<b>11734</b>	<b>100.4</b>
Nurafshon sh.	148	171	115.5
Olmaliq sh.	535	524	97.9
Angren sh.	785	690	87.9
Bekobod sh.	332	319	96.1
Chirchiq sh.	434	551	127.0
Ohangaron sh.	106	172	162.3
Yangiyo'l sh. <i>tumanlar:</i>	209	281	134.4
Oqqo'rg'on	438	488	111.4
Ohangaron	427	332	77.8
Bekobod	734	669	91.1
Bo'stonliq	606	561	92.6
Bo'ka	471	613	130.1
Quyichirchiq	481	458	95.2
Zangiota	779	770	98.8
Yuqorichirchiq	588	588	100.0
Qibray	732	745	101.8
Parkent	718	749	104.3
Pskent	401	380	94.8
O'rtaçirchiq	671	609	90.8
Chinoz	582	576	99.0
Yangiyo'l	828	782	94.4
Toshkent	686	706	102.9

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,1 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko'paydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,6 promille bo'lган).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Quyichirchiq (4,7 promilledan 6,8 promillega) va Oqqo'rg'on (4,1 promilledan 5,9 promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Yangiyo'l (9,4 promilledan 8,2 promillega), Ohangaron (9,1 promilledan 8,1 promillega), tumanlarida kuzatildi.


### **Toshkent viloyati bo'yicha vafot etganlar soni, kishi yanvar-mart**

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3888</b>	<b>4328</b>	<b>111,3</b>
Nurafshon sh.	65	70	107,7
Olmaliq sh.	233	247	106,0
Angren sh.	267	275	103,0
Bekobod sh.	141	138	97,9
Chirchiq sh.	319	354	111,0
Ohangaron sh.	81	73	90,1
Yangiyo'l sh. <i>tumanlar:</i>	137	120	87,6
		0	
Oqqo'rg'on	102	148	145,1
Ohangaron	93	131	140,9
Bekobod	178	168	94,4
Bo'stonliq	191	229	119,9
Bo'ka	151	152	100,7
Quyichirchiq	121	175	144,6
Zangiota	214	243	113,6
Yuqorichirchiq	196	231	117,9
Qibray	290	316	109,0
Parkent	175	187	106,9
Pskent	132	147	111,4
O'tachirchiq	203	225	110,8
Chinoz	147	168	114,3
Yangiyo'l	248	261	105,2
Toshkent	204	270	132,4

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,4 %i o'simtalardan, 5,8 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 7,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 59,5 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 24,1 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, va 5,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### **Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)**



**2018 yil yanvar-mart**

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 7,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,4 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 7,8 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



**Tabiiy o'sish:**  
7,4 ming kishi

**Nikoh va nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,9 ming nikoh va 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,5 va 1,3 promilleni tashkil etdi.



## **Toshkent viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik yanvar-mart**

	Tuzilgan nikohlar soni			Nikohdan ajralishlar soni		
	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3559</b>	<b>3888</b>	<b>109,2</b>	<b>890</b>	<b>949</b>	<b>106,6</b>
Nurafshon sh.	62	65	104,8	16	20	125,0
Olmaliq sh.	184	233	126,6	71	65	91,5
Angren sh.	145	267	184,1	76	41	53,9
Bekobod sh.	128	141	110,2	43	46	107,0
Chirchiq sh.	135	319	236,3	80	93	116,3
Ohangaron sh.	45	81	180,0	20	14	70,0
Yangiyo'l sh. tumanlar:	81	137	169,1	27	22	81,5
Oqqa'rg'on	157	102	65,0	27	32	118,5
Ohangaron	75	93	124,0	29	21	72,4
Bekobod	182	178	97,8	38	44	115,8
Bo'stonliq	167	191	114,4	35	46	131,4
Bo'ka	168	151	89,9	27	33	122,2
Quyichirchiq	161	121	75,2	32	46	143,8
Zangiota	156	214	137,2	37	71	191,9
Yuqorichirchiq	250	196	78,4	46	56	121,7
Qibray	187	290	155,1	69	67	97,1
Parkent	357	175	49,0	38	34	89,5
Pskent	106	132	124,5	12	20	166,7
O'rtaçirchiq	214	203	94,9	43	49	114,0
Chinoz	163	147	90,2	27	38	140,7
Yangiyo'l	277	248	89,5	48	47	97,9

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 5,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 1,8 ming kishi bo'lган.

## Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	5,0	4,5
<b>Ko'chib ketganlar</b>	6,8	5,7
<b>Migratsiya saldosi</b>	- 1,8	- 1,1

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Zangiota, Toshkent (minus 0,4 ming kishi), Bo'stonliq, Bekobod, Bo'ka, Yangiyo'l, Oqqa'rg'on (minus 0,1 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.